

BOSHLANG'ICH SINFLARDA RASMLI-IZOHLI O'QUV LUG'ATLAR ORQALI TEZ AYTISHLARNI O'RGATISH VA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH.

Husenova Muhtaram Husniddin qizi

Navoiy davlat universiteti, 13.00.02- Ta'lim va tarbiya nazariyasi
va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi bo'yicha
1- kurs tayanch doktoranti,

Esanova Sevinch Asliddin qizi

Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha va boshlang'ich
ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14383405>

Anotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini oshirishda rasmlil-izohli o'quv lug'atlar orqali tez aytishlardan foydalanish ularning nutqini aniq va ravon qilishi, diqqatni oshirishi, rasmlil-izohli o'quv lug'atlarni tayyorlashning afzalliklari to'g'risida ilmiy farazlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilari, nutq, tez aytishlar, diqqat, so'z boyligi, rasmlil-izohli lug'atlar. talaffuzni yaxshilash.

Annotation: In this article, the use of quick sayings through picture-explanatory dictionaries to improve the speech of elementary school students makes their speech clear and fluent, increases attention, the advantages of preparing picture-explanatory dictionaries are correct. scientific hypotheses have been cited.

Key words: Primary school students, speech, rapid utterances, attention, vocabulary, picture-explanatory dictionaries. improve pronunciation.

Аннотация: В данной статье использование кратких изречений посредством картинно-пояснительных словарей для улучшения речи учащихся младших классов делает их речь четкой и беглой, повышает внимание, приводятся преимущества составления картинно-пояснительных словарей, корректны научные гипотезы.

Ключевые слова: Младшие школьники, речь, скороговорки, внимание, словарный запас, картинно-пояснительные словари. улучшить произношение.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini oshirishga, o'stirishga, ularning aniq, ravon, bexato gapirishlari uchun hozirda o'qituvchilar tomonidan ham katta e'tibor qaratilmoqda. shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z o'quvchilarining nutqini oshirish uchun lug'atlar, she'rlar va xalq og'zaki ijodi namunalaridan keng foydalanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar ham faqat o'qituvchi rahbarligidagina emas, balki, o'zlari ham mustaqil ravishda maqol,

matal va tez aytishkar yod olib, o'z ustida ishlashsa yanada maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik bo'lib, yakunida foydali natija beradi. Hozirda o'quvchilarining nutqini oshirishda tez aytishlardan foydalanish samarali hisoblanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tog'ri va ravon gapirishlari uchun foydali usullardan biri. Tez aytishlar aqlni charxlovchi, diqqatni oshiruvchi yengil mashq turlaridan biri hisoblanadi. Kattalar ham, yosh bolalar ham bitta tez aytishni bir nafasda 5-6 martadan, kuni bo'yi 10 marta aytib yursa, xotiralari kuchaydi va kuni bilan diqqatliroq bo'lishadi.


Masalan: Lak-lak elak, elakka un kerak.

<p>Elak Sieve</p>	<p>Sochiluvchan mahsulotlar va materiallar (un, guruch, ohak, sement, qum va boshqalar)ni metall to'r orqali o'tkazib, har xil hajmdagi zarralarga ajratish (elash) uchun mo'ljallangan qurilma. Ro'zg'or, qurilish va sanoatda ishlatiladi. Asosan, Un elash uchun ishlatiladigan, to'r qoplangan yog'och gardishdan iborat uy-ro'z-g'or asbobi.</p>
	

Boshlang'ich sinflarda rasmi-izohli o'quv lug'atlar orqali tez aytishlarni o'rgatish samarali va qiziqarli usullardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, talaffuzni yaxshilash va nutq tezligini oshirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida rasmi-izohli o'quv lug'atlar foydalanish orqali o'quvchilarning individuval rivojlanishiga, darsga qiziqish va yaxshi o'zlashtirishga erishiladi.

Tez aytishlarning so'zlari bir biriga o'xshash bo'lib, tez aytganda ularni xato aytib yuborishi yoki so'zlarning o'rnini almashtirib aytishlari mumkin. Bu esa o'quvchilardan diqqatini yanada oshirib, so'zlarni aniq va ravon aytishga undaydi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda avval sodda tez aytishlardan, keyin sal qiyinroqlaridan foydalangan yaxshi bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqi aniq va ravon rivojlangan bo'lib, barcha harflarni to'liq talaffuz qila olishi kerak bo'ladi. Chiroyli gapirish, nutqini ravon qilish uchun hamma o'z ustida ishlashi kerak bo'ladi, afsuski oramizda ayrim harflarni to'g'ri talaffuz qila olmaydigan, so'zlarni aytishga qiynaladigan o'quvchilar ham bor. Bunday o'quvchilar bilan logopedlar shug'ullanadilar.

Logopediya (yunoncha logos - so'z, padeo - tarbiya so'zlari dan olingan) - og'ir nuq nuqsonlarini o'rganish. oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan¹. Logopedlar bemor bolalarning to'g'ri talaffuz qilishi, ularning nutqini oshirishi, nutq buzilishining rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun bir xilda bo'lgan harakatlarni shakllantirishga o'rgatadi. Bolalarga nutq terapeyasi, nafas olish mashqlari, til massajlari qilinadi. Hozirgi kunda logopedlarimiz ham nutqida nuqsoni bor bolalarni davolash uchun tez aytishlardan foydalanishyapdi.


Olib borilgan tahlillarga ko'ra, bugungi kunda ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maktabgacja ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari o'rtasida "sh", "ch", "z", "r", tovushlarini talaffuz qilishga qiynalish aniqlangan. Shunda logopedlar davolashning eng oson va samarali usuli bo'lgan tez aytishlardan foydalanishni ma'qul ko'rishdi. Chunki tez aytishlarda o'xshash harflar va o'xshash tovushlar ko'p takrorlanadi, bunday tez aytishlarni ko'p takrorlagan o'quvchilar tezroq o'rganadi. Masalan "sh" harfini talaffuz qilishga qiynaladigan o'quvchilar uchun logopedlar mana shu tez aytishdan foydalanadi:

Boshlang'ich sinflar uchun tez aytishni o'rgatishda Rasmi-izohli lug'atlarni tayyorlash quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- Rasmlar oddiy, tiniq va aniq tasvirlangan, shuningdek, tez aytishda ishlatiladigan so'zlar va iboralar uchun mos bo'lishi kerak. Masalan, hayvonlar, o'simliklar yoki kundalik hayotdan lavhalar.
- Rasmi-izohli lug'atlarda berilgan izohlarda so'zlar va iboralar tushunarli va oddiy qilib tasvirlanadi. Har bir so'z yoki ibora oson talaffuz qilish uchun bo'g'inlarga bo'linadi.

Qishda kishmish pishmash, kishmish pishsa qishmash
Kishmish yegan kishining, tishlari qamashmash.

Kishmish 1. Uzum- grapes	Kishmish — Mevasi maydaroqbo'ladigan urug'siz uzum va
---	--



2. **Mayiz- raisins**

shu uzumning mayizi. Oq kishmish, Qora kishmish kabi turlari keng tarqalgan.





Tishlari qamashmoq
Gritting teeth

Tishning qattiq emal qavatining yupqalashishi oqibatida, shirin yoki nordon narsani tishlaganda, tishlarda uvishish bo'lishi va birdan og'riq berishi.

"Kishmish yegan kishining, tishlari qamashmish" maqolida chuqur ma'nolar bor. Bu ibora hayotiy tajribaga asoslanib aytilgan va quyidagi ma'nolarni anglatishi mumkin:

1. Qiyinchilik yoki muammolarga moslashish: Kishmish yegan kishi shirinlikka ko'nikib, undan noqulaylik sezmaydi. Bu hayotda biror narsaga ko'nikish yoki moslashish jarayonini ramziy anglatishi mumkin.

2. Tajriba va chidamlilik: Bu gap odamning tajribali bo'lib, biror narsaga nisbatan chidamliligini ko'rsatishi mumkin. Masalan, qiyinchiliklar ko'rgan odam ularga nisbatan chidamli bo'lib qoladi.

	<p>3. Oddiy narsadan shikoyat qilmaslik: Kishmishni yoqtirgan odam undan shikoyat qilmaydi. Bu gap inson o'z tanlovi uchun mas'uliyatni qabul qilishi kerakligini ham anglatadi.</p>
	

Bu tez aytish majoziy ma'noda ishlatiladi va shunday mazmuni anglatadi: Kimki biror narsa bilan tanish bo'lsa yoki unga ko'nikkan bo'lsa, u o'sha narsadan ta'sirlanmaydi yoki qiynalmaydi. Bu gap hayotiy tajriba yoki biror holatga moslashishni ifodalaydi. Masalan, biror kishi qiyinchiliklarga o'rganib qolgan bo'lsa, undan keyingi qiyinchiliklar unga og'irlik qilmaydi. Shu tarzda, kishmishni ko'p yeb yuradigan odamga uning achchiq yoki shirinligi ta'sir qilmaydi, deyilgan.

Nima uchun aynan bu tez aytish, chunki, ko'p so'zlar o'xshash va takrorlanib kelgan. Bundan tashqari, takrorlangan so'zlarning har ikkala bo'g'ini ham "sh" harfi bilan tugagan. Bu tez aytishni tez aytganda so'zlarni almashtirib yuborish mumkin, o'quvchilar diqqatliroq bo'lib tez aytishni tez tez takrorlashsa shu harfni tezda o'rganib oladi. Shunday yo'llar bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini ravon qilamiz.

Demak, boshlang'ich ta'limda tez aytishlarni o'rgatishda rasmlil-izohli o'quv lug'atlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va o'quvchilarni o'qishga bo'lgan intilishlarini kuchaytiradi. Ushbu usul nafaqat o'quvchilarning nutqini rivojlantiradi, balki ularga o'quv jarayonida zavq bag'ishlaydi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo'minova L.R. Tutilib gapiruvchi o'smirlar uchun qo'llanma.
2. Asqarxo'jayeva M. Bog'chalarda o'zbek tilini o'rganish. Bolala bog'chalari tarbiyachilari uchun metod qo'llanma. 1994 yil.
3. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. 2006 yil.
4. 2- sinf " Ona tili va o'qish savodxonligi " 2- qism Toshkent 2021- yil



DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



5. 4- sinf " O'qish savodxonligi" 1- qism Novda nashriyoti 2023- yil

6. M. U. Xamidova " Maxsus Pedagogika "

